

Elektron kutubxona katalogi

Ortikova Gulnora

Axborot asrida jahon hamjamiyati bilan tobora integratsiyalashib borayotgan O'zbekistonda bugungi kunda axborot to'plash, tarqatish va uni tasarruf qilish jarayoni jadallashib borayotir, bu jarayonda kutubxona xizmatlarini ko'rsatish ham yangicha shaklga ega bo'lib bormoqa. Respublikamizning bir qator yirik kutubxonalari o'zlarining elektron kataloglarini yaratishga kirishganlar [1].

Respublikamizda yaratilayotgan elektron kataloglar asosan IRBIS tizimi asosida yaratilmoqda, shu sababli ham davriy nashrlar elektron katalogini yaratish texnologiyasi mazkur tizim asosida bayon qilingan. Davriy nashrlar elektron katalogini yaratish to'rt bosqichda amalga oshirish ko'rsatilgan: Birinchi bosqichda davriy nashrga tegishli umumiy bibliografik ma'lumotlar elektron katalog ma'lumotlar bazasiga kiritiladi, kutubxonaga kelib tushgan davriy nashrlar ruyxatga olinadi; Ikkinchi bosqichda aniq, bir jurnalning (yoki gazetasining) mundarijasi kiritiladi; Uchinchi bosqichda, jurnalda (yoki gazetada) e'lon qilingan maqola uchun analitik tasvir yaratiladi; To'rtinchi bosqichda esa jurnalda (yoki gazetada) e'lon qilingan maqolalarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantiriladi. Davriy nashrlarda e'lon qilingan maqolalarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirish kitobxonlarning talablari asosida amalga oshirilishi tavsiya qilingan [3].

Bu maqolada kutubxona xodimi va kitobxon o'rtasidagi kitob almashinivuni ta'minlashda, kutubxona xodimi va kitobxon o'rtasidagi bog'lanishda, kitobxonlar orasidan kutubxonadan olingan kerakli kitobni topishda kutubxona xodimi va kitobxon ko'p vaqtini sarflashga to'g'ri keladi. Bu kabi muommalarni hal qilishda Delphi dasturlash tilida tuzilgan "SamQXI ning Elektron kutubxonasi" dasturiga murojat qilamiz (1-rasm) [2].

SamQXI ning Elektron kutubxonasi

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Adabiyotni Avtori orqali Izlash

Topish
Misol: Jiyonov T.O. yoki Jiyonov T.

Talabalar haqida ma'lumot

Topish
Misol: Jiyonov Tursunpulat Ortigovich

Adabiyotni Nomi orqali Izlash

Topish
Misol: Matematika yoki Fizika

Xodimlar haqida ma'lumot

Topish
Misol: Jiyonov Tursunpulat Ortigovich

BU KITOB KIMDA? Talabada Xodimda Tozalash Adminstrator Yopish Muallif

1-rasm. SamQXIning Elektron kutubxonasi dasturining umumiy ko'rinishi.

Kitobxon bu dasturning “Adabiyotlarni avtori orqali izlash” katagiga kerakli adabiyotni avtorini yozib “Toppish” tugmasini bossa natijasi chap pastki oynada hosil bo’ladi. Agar kitobxon “Adabiyotlarni nomi orqali izlash” katagiga kerakli adabiyotni nomini yozib “Toppish” tugmasini bossa natijasi chap pastki oynada hosil bo’ladi (2-rasm).

The image shows two side-by-side screenshots of a web application interface. Both have a green header and a light yellow main area. The left screenshot is titled 'Adabiyotni Avtori orqali Izlash' and shows a search form with 'Karimov P' entered, a 'Topish' button, and a list of search results including 'Adabiyotni Nomi orqali Izlash' and 'Dasturlash'. The right screenshot is titled 'Adabiyotni Nomi orqali Izlash' and shows a search form with 'Dasturlash' entered, a 'Topish' button, and a list of search results including 'Adabiyotni Avtori orqali Izlash' and 'Dasturlash'.

2-rasm. SamQXIning Elektron kutubxonasi dasturining Adabiyotni avtori va nomi orqali izlash bo’limlari.

Agar kutubxona xodimi talaba to’g’risida ma’lumotga ega bo’lmoqchi bo’lsa “Talabalar haqida ma’lumot” katagiga talabaning I.S.H.O to’liq yozib “Topish” tugmasini bossa natijasi o’ng pastki oynada hosil bo’ladi. Kutubxona xodimi o’qituvchi to’g’risida ma’lumotga ega bo’lmoqchi bo’lsa “Xodimlar haqida ma’lumot” katagiga o’qituvchining I.S.H.O to’liq yozib “Topish” tugmasini bossa natijasi o’ng pastki oynada hosil bo’ladi (3-rasm).

The image shows two side-by-side screenshots of a web application interface. Both have a green header and a light yellow main area. The left screenshot is titled 'Talabalar haqida ma'lumot' and shows a search form with 'Ortiqov Otabek Tursunpulat o'g'li' entered, a 'Topish' button, and a list of search results including 'Xodimlar haqida ma'lumot' and 'Dasturlash'. The right screenshot is titled 'Xodimlar haqida ma'lumot' and shows a search form with 'Jiyanov Tursunpulat Ortiqovich' entered, a 'Topish' button, and a list of search results including 'Talabalar haqida ma'lumot' and 'Dasturlash'.

3-rasm. SamQXIning Elektron kutubxonasi dasturining Talabalar va xodimlar haqida ma’lumot topish bo’limi.

Kutubxona xodimi zarur holda kerakli kitob qaysi kitobxonda ekanligini bilish uchun va u kitobxon bilan aloqani bog’lash uchun, kerakli kirobni “Adabiyotlarni avtori orqali izlash” katagiga yoki “Adabiyotlarni nomi orqali izlash” katagiga mos holda avtori yoki nomini yozib “Talabada” yoki “Xodimda” tugmasida birini bossa natijasi o’ng pastki oynada hosil bo’ladi(4-rasm).

4-rasm. SamQXIning Elektron kutubxonasi dasturi kitobni kimda ekanligi haqida ma'lumot berishi, o'ng o'rnida .

Kutubxona xodimi kitobxon bilan kitob almashinuvida kitobni kitobxonni nomiga rasmiylashtirish uchun dasturdagi “Adminstrator” tugmasini bossa “Adminstrator EK” degan muloqat oynasi hosil bo'ladi, bunga kutubxona xodimi o'zining parolini kiritib Ok tugmasini bossa quydagi muloqat oyna hosil bo'ladi(5-rasm).

5-rasm. SamQXIning Elektron kutubxonasi dasturining kitob xossasini kiritish bo'limi.

Yuqoridagi muloqat oynaga kutubxona xodimi kitobxon olayotgan kitobni xossasini kiritib “Talabalar” yoki “Xodimlar” tugmasidan birini bosamiz, shunda quydagi muloqat oynasi hosil bo'ladi(6-rasm).

6-rasm. SamQXIning Elektron kutubxonasi dasturining Talaba haqida ma'lumot kiritish bo'limi.

Kutubxona xodimi talabani barcha ma'lumotlarini kiritib "Saqlash" tugmasini bossa talabani olgan kitobi bo'yicha ma'lumotlarni kompyuter xotirasiga saqlagan bo'ladi(6-rasm).

Bu ishlar bilan biz kutubxona xodimi va kitobxon o'rtasidagi ayrim qiyinchiliklarni va vaqt cho'zilishlarini oz bo'lsa ham kamaytirishga erishdik. Shuni aytish kerakki bu dastur ixtiyoriy Windows operatsion tizimida ishlay oladi.

Adabiyotlar

- 1 Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish.
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti Toshkent 2007
- 2.Джулиан М.Б.Фундаментальный алгоритмы и структуры данных в Delphi. Москва, Санкт-Петербург 2003.
- 3.www.ziyonet.uz